SCIENCE SHINE
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
Issue 2(68), Volume 1 | ISSN 3030-377X | 30.01.2026

AHOLI JOYLASHUVIDA SUV RESURSLARINING AHAMIYATI

Shermatova Dilobar Bobodo‘st qizi
Navoiy Davlat Universisteti 2-kurs Magistratura talabasi e-mail
Dilobarshermatova2729@gmail.com

Maqolada jahon aholisi joylashuvida tabiiy omillarning ahamiyati aks ettirilgan. Xususan jahon aholisi joylashuvida tabiiy omillar orasida suv resurislarining ta’siri yoritib berilgan. Shuningdek, aholining muntazzam muvozanatda joylashishida tabiiy omillar o‘rni ahamiyatli hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Suv resurslari, tabiiy omillar, jahon aholisi joylashuvi, hududiy tashkil etilish, suv omili, rivojlanish tendensiyasi, populyatsiyalar tarqalishi, qulay sharoit, iqlim, relyef, ekologik omil.

Suv resurslari aholining hududiy tashkil etilishi va jamiyat taraqqiyotining jadal o‘sishiga asosiy ta’sir etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Hududlarda jahon aholisini joylashuvining bir qancha qulay tabiiy sharoitlar mavjudligiga qaramasdan tabiiy omillar aholi joylashuvida asosiy birlamchi zarurat sifatida qaraladi.

Garchi bugungi kunda aholi hayot tarzini yaxshilash uchun qulayliklar ko‘p bo‘lsada, lekin suv resurslari bilan bog‘liq muammolar hududlarda sharoitning rivojlanishi tendensiyasini pasaytirmoqda va bir necha murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda.

Aholini joylashuviga ko‘ra suvga yaqin hududlardan boshlab, yuqori adir va tog‘ mintaqalarigacha tarqalishi ilmiy asoslangan. Buni guruhlashtirish geografik xususiyatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu guruhlarga suv resurslar bilan ta’minlanganlik masalalariga alohida ahamiyat qaratilgan.

birinchi guruh- suv resurslari bilan yaxshi ta’minlagan davlatlar

ikkinchi guruh -suv resurslari bilan taminlangan davlatlar

uchinchi- suv resurslari bilan ta’minlanmagan davlatlar.


Aholi manzilgohlarini o‘rganish jarayonida jamiyatning hududlar bo‘yicha samarali tashkil etilishga gidroligik, ekologik, iqlim, relyef omillarining ta’siri kuchli ekanligi aniqlandi va ayniqsa suv bilan bog‘liq muammolarning ahamiyati alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, ushbu tadqiqot populyatsiyalar tarqalishining samarali rejalashtirishda tabiiy omillar bilan bog’liq muammolarga yechimlar, tavsiyalar va asosiy xulosalarni beradi.

Issue 2(68), Volume 1 | ISSN 3030-377X | 30.01.2026

INTRODUCTION

Jamiyat hududiy tashkil topishi va qulay sharoitga ega bo‘lishiga ta’sir etuvchi barcha omillar orasida suv resurslari eng asosiy omillardan biri hisoblanadi. So‘ngi yillarda ushbu sohani rivojlantirish ko‘pgina davlatlar tadqiqot olib bormoqda. Jumladan, rus olimlari V.Bezverbny va E.Lukashenko (2023) Rossiya hududida aholining tabiiy o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rganilmoqda. Shuningdek, A.Lukyantes va A.Bragin (2021) tabiiy iqlim omillarining Rossiyada aholi kasallanish darajasiga ta’sirini tadqiq etgan.

Aholi joylashuviga oid individual va jamoaviy darajada shug’ullanadigan turli oqimlar paydo bo‘lgan. Demografik jarayonlarning hududiy xususiyatlari, aholi va aholi punktlari demografik vaziyatlarini baholash Max Plank Institute for Demographic Reserch (Germaniya), The Viennese institute of a Demography (Avstriya), Univesity of Nebraska- Lincoln (AQSh) kabi masalalarni tadqiq qilib kelmoqda.



Amerika Qo‘shma Shtatlari mutaxassisi D.Wrenn (2023) tabiiy ofatlar ko‘payishi natijasida aholining Shimoliy-Sharqiy va O‘rta G‘rbdagi shtatlardan Quyosh kamaridagi hududlarga siljishini nazariy asoslab bergan. Bu esa aholining iqlimga xos bo‘lgan mintaqalarda joylashishini taqozo etadi.

Tabiiy omillar shubhasiz insoniyat paydo bo‘lgandan buyon jamiyat shakillanishida muhim ahamiyat kasb etib keladi. Shuning uchun aholi yashash hududlarini qiyofasini o‘zgartiruvchi tabiiy omillar, ayniqsa, suv bilan bog’liq muammolarga yechim va tavsiyalar ushbu tadqiqot obyektini taqozo etadi.

Bugungi kunda barcha sohada ko‘plab olimlar turli xil metodlarda izlanishlar olib bormoqda. Suv resurslari bilan yaxshi ta’minlanmagan yoki suv bilan bog’liq muammolar mavjud hududlarda aholi siyrak joylashganligi yoki aholining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishiga sabab bo‘layotganligi bu esa yer yuzida aholining notekis taqsimlanishiga olib kelishi ko‘plab olimlar tadqiqotlarda ko‘rsatib o‘tilgan. Ammo keng miqyosda targ’ib qilish gidrologiyani qo‘llab -quvvatlash uchun doimiy izlanishlar va malakali kadrlar tayyorlash, kerakli yechimlar va choralar kerak ekanligi ushbu tadqiqotda o‘z ifodasini topadi. T.Barskiy va S.Alpertning fikriga ko‘ra cheklangan suv resurslari va suvdan samarasiz foydalanish aholining tez o‘sib borishi bilan birgalikda dunyoning cheksiz toza suv ta’minotini xavf ostiga qo‘yadi va qishloq xo‘jalik mahsulotlari dunyodagi chuchuk suv iste’molining taxminan 87 foizini tashkil qiladi deyishadi.

Yer yuzining ayrim qismlarida aholining soni nihoyatda zichlashib ketishi ayni bir vaqtning o‘zida boshqa bir hududlarda esa aksincha kamayib yoki umuman yo‘qolib ketishi natijasida yuzaga keladigan aholining tartibsiz, notekis joylashishi vaqt o‘tgan sari jamiyatda qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Dunyo aholisining joylashuvi asosan suv resurslariga bog‘liq bo‘lishi tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Mintaqalarda aholining joylashuvi o‘rganilganda, Nil, Dajla, Gang, Don, Dnepr, dengizlar shelflarida aholining eng zich joylashishi kuzatiladi. Nil daryosi deltasida masalan Misr aholisining 95 foiz qismi aynan shu hududda yashaydi, zichligi esa 1500-2000 kishiga to‘g‘ri keladi. Mazkur hudud qishloq xo‘jaligi uchun eng qulay joy bo‘lganligi sababli aholi nisbatan zich joylashgan. Shuningdek, Gang daryosi deltasidagi Hindiston-Bangladesh hududlarida ham aholi zichligi yuqori bo‘lib, ba’zi joylarida esa 1100-2000 kishidan ortiq. Bir vaqtning o‘zida suv resurslari tanqis hududlarda aholi siyrak joylashganini ham ko‘rishimiz mumkin. Arabiston yarimoroli ichki qismida zichlik 0-1 kishi Sahroi Kabir hududida 0-1 kishiga teng. Bu esa suv resursiga bog‘liq bo‘lganda aholi zichlashuvi ortishi kuzatiladi.

Umuman olganda jahon aholisi joylashuviga suv resurslarining ahamiyati yuqori bo‘lib, bundan tashqari suv resurslari bilan birgalikda yana bir qancha tabiiy omillar ta’sir etishi kuzatilgan. Shuningdek, ilmiy-nazariy jihatlariga ham e’tibor berilgan.

Dunyo aholisining bir tekisda joylashmaganligi asosan tabiiy omillar bilan aloqadorligi asoslangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.V.Bezverbny A, E.Lukashenko A & E.Bekineev A Demografik tadqiqotlar jurnali (2024)

2.M. Bo‘rieva ‘‘Demografiya asoslari’’ Toshkent 2001

3.D.Wrenn Tabiiy ofatlar ko‘payishi natijasida AQSH ichidagi migratsiyaning nazariy asoslari(2023)

4.A. Soliyev S, Jumaxonov SH.Z, Toshpo‘latov A.M,Iqtisodiy va Ijtimoiy geografiya. Darslik,Namangan.2024

Foydalanilgan internet saytlari:

1. Max Planck Institute for Demographic Reasearch
2. 2.Demografik O‘zgarishlar va ularning Ijtimoiy-Iqtisodiy oqibatlari
3. Scholarly Migration Database Methods and Documentation
4. Vil 28,No 2(2025)-Population